


KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)

2018 yil yanvar-martida 1088 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15,3 % kam demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar sanoat tarmog'ida (22,7 %), savdo sohasida (24,5 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (13,4 %), qurilishda tarmog'ida (13,6 %), yashash va ovqatlanishda (9,7 %), tashish va saqlashda (2,7 %) tashkil etilgan.

2018 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2018 yilning yanvar–martida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1231,7 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 53,2 %) yoki 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`shish sur`ati 105,4%ni tashkil qildi;



– 339,1 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 50,1 %) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`shish sur`ati 84,9 %ni tashkil qildi;



– 492,2 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 96,6%) bajarildi va 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`shish sur`ati 104,3 % ni tashkil qildi;



– 1609,5 mlrd.so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (viloyat jami xizmatlar xajmining 74,8), 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`shish sur`ati 102,2 % ni tashkil qildi;



– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 90,3 % yoki 2008,3 mlrd. so`mi (o`shish sur`ati 97,2 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;

– 46,0 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 70,3 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi.




– avtomobil transporti yuk aylanmasining 2,6 % ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 96,3 %) ko`payishi ta`minlandi;


– yo`lovchi aylanmasining esa 2,5 % ga (umumiy yo`lovchi aylanmasining 97,7%) ko`payishi ta`minlandi;

Hududlar bo`yicha eng ko`proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarqand shahri (375,7 mlrd.so`m), Urgut (145,5 mlrd.so`m) va Samarqand (124,5 mlrd.so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.

Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)




2018 yil yanvar-martda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati




Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Samarqand shahri (446,5 mlrd.so'm), Urgut (427,3 mlrd.so'm) va Samarqand (87,8 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati

Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Samarqand shahri (861,0 mlrd.so'm), Urgut (63,0 mlrd.so'm) va Tayloq (54,0 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil I-chorak uchun, foizda



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 27,8% sanoat korxonalari, 33,3 % – savdo, 31,6 % – xizmatlar, 10,0 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 27,3 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, foizda



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.